



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **AKADEMIK ERKINLIK TUSHUNCHASINING FALSAFIY-KATEGORIAL TAHLILI**

**Kudratova Umida Raxmatovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, tadqiqotchi

### **Annotatsiya**

Maqolada akademik erkinlik tushunchasi falsafiy kategoriya sifatida tahlil qilinadi. U ta'lim falsafasi, universitet g'oyasi, ilm-fan taraqqiyotining o'ziga xos komponenti sifatida tadqiq etiladi. Akademik erkinlik tarkib - ilm-fanning avtonomligi, shaxs huquqlari va erkinliklarining tarkibiy qismi hamda ijtimoiy mas'uliyat bilan chambarchas bog'liqdir. Akademik erkinlik tushunchasi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurda murakkab va ko'p qatlamli kategoriya sifatida namoyon bo'lib, u erkinlik, bilish, ijod, mas'uliyat va avtonomiya kabi fundamental falsafiy kategoriyalar bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Akademik erkinlik umumiy erkinlik kategoriyasining ilm-fan va ta'lim sohasidagi maxsus ko'rinishi bo'lib, ilmiy subyektning - olim, o'qituvchi va tadqiqotchining - ilmiy muammolarni tanlash, ularni talqin qilish va ilmiy xulosalarni e'lon qilishdagi mustaqilligini anglatadi.

**Kalit so'zlar:** Erkinlik, akademik erkinlik, ilm-fan, ta'lim, oliy ta'lim, universitet, ta'lim sub'ektlari.

## **ФИЛОСОФСКО-КАТЕГОРИАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПЦИИ АКАДЕМИЧЕСКОЙ СВОБОДЫ**

**Кудратова Умида Рахматовна**

Ташкентский государственный экономический университет, исследователь

### **Аннотация**

В статье анализируется концепция академической свободы как философская категория. Она изучается как специфический компонент философии образования, идеи университета и развития науки. Структура академической свободы тесно связана с автономией науки, компонентом индивидуальных прав и свобод, а также социальной ответственностью. Концепция академической свободы проявляется в современном социально-философском мышлении как сложная и многоуровневая категория, которая формируется неразрывно с такими фундаментальными философскими категориями, как свобода, знание, творчество, ответственность и автономия. Академическая свобода является частным проявлением общей категории свободы в области науки и образования и означает независимость научного субъекта — ученого, преподавателя и исследователя — в выборе научных проблем, их интерпретации и публикации научных выводов.

**Ключевые слова:** Свобода, академическая свобода, наука, образование, высшее образование, университет, субъекты образования.

## **PHILOSOPHICAL-CATEGORIAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF ACADEMIC FREEDOM**

**Kudratova Umida Rakhmatovna**

Tashkent State University of Economics, Researcher

### **Abstract**

The article analyzes the concept of academic freedom as a philosophical category. It is studied as a specific component of the philosophy of education, the idea of the university, and the

development of science. The structure of academic freedom is closely related to the autonomy of science, a component of individual rights and freedoms, and social responsibility. The concept of academic freedom is manifested in modern socio-philosophical thinking as a complex and multi-layered category, which is formed inextricably linked with such fundamental philosophical categories as freedom, knowledge, creativity, responsibility, and autonomy. Academic freedom is a special manifestation of the general category of freedom in the field of science and education, and means the independence of a scientific subject - a scientist, teacher, and researcher - in choosing scientific problems, interpreting them, and publishing scientific conclusions.

**Keywords:** Freedom, academic freedom, science, education, higher education, university, subjects of education.

Zamonaviy ta'lim jamiyatning ijtimoiy instituti sifatida uning rivojlanishi va holatini ko'rsatib turadi. Jamiyatdagi munosabatlar o'zgarishlari ta'limga faol ravishda ta'sir ko'rsatadi, unga moslashuvchanlik va yangi tarixiy jarayon talablariga mos javob berishni shart qilib qo'yadi. Oliy ta'lim muassasalarining demokratlashuvi va shaxsga yo'naltirilishiga jamiyatimizdagi tub o'zgarishlar sabab bo'lmoqda. Jamiyat tomonidan oliy ta'lim muassasalarining mustaqil rivojlanishi, ya'ni uning avtonomiyasi va akademik erkinligi ta'minlanmoqda. Uning asoslari esa professor-o'qituvchilarning ijodkorligi, professional faoliyati, uzluksiz ta'lim va ilg'or tajribalarga borib taqaladi. Zero, Xazrati Ali (r.a.) ta'brida "Ogoh bo'l, ilm va uning fayzu ravnaqi olti narsaga rioya qilinganda hosil bo'ladi... zakovat-ziyraklik, ilmga chanqoqlik, sabru qanoat-la etuklik - kifoyatlik, ustoz irshodi - y'ullanmasi hamda uzoq vaqt, deb aytilgan! [5.33].

Akademik erkinlik zamonaviy jamiyatda ilm-fan, ta'lim va intellektual faoliyatning asosiy institutsional tamoyillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. U, eng avvalo, ilmiy izlanishlar olib borish, ta'lim jarayonida bilimlarni erkin izohlash, fikrlar xilma-xilligini ta'minlash hamda ilmiy xulosalarni siyosiy, mafkuraviy yoki ma'muriy bosimlarsiz ilgari surish imkoniyatini anglatadi. Shaxsning intellektual mustaqilligi bilan jamiyatning ilmiy taraqqiyoti o'rtasidagi uzviy bog'liqlik akademik erkinlikni ifodalaydi.

**ASOSIY QISM.** Mazkur tushuncha tarixan Yevropa universitetlarining shakllanishi davrida paydo bo'lgan bo'lib, dastlab professor va talabalar o'rtasidagi bilim almashinuvida erkinlikni ta'minlashga qaratilgan. Vaqt o'tishi bilan akademik erkinlik faqatgina ta'lim jarayoniga emas, balki ilmiy tadqiqotlar, ilmiy natijalarni e'lon qilish, muhokama qilish va tanqidiy tahlil qilish huquqlarini ham o'z ichiga olgan keng qamrovli ijtimoiy hodisaga aylandi.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan, akademik erkinlik - bu shaxs va jamiyat o'rtasidagi bilim ishlab chiqarish jarayonida vujudga keladigan murakkab munosabatlar tizimidir. Unda bilish erkinligi, haqiqatga intilish va ijtimoiy mas'uliyat dialektik birlikda namoyon bo'ladi.

Hind davlat arbobi, Abulqalam Ozod ta'kidlaganidek: "Ilm-fan o'z-o'zidan xolisdir. Ilmiy kashfiyotdan tuzatish uchun ham, o'ldirish uchun ham foydalanish mumkin. Ilm er yuzini jannatga aylantirishga xizmat qiladimi yo butun dunyoning kuyib kul bo'lishigami, bu uni egallagan kishining aql-idroki va fikrlash tarziga bog'liq. Agar insonga faqat tadrijiy rivojlanuvchi hayvon sifatida qarasa, unda hech nima unga fandan hayvoniy nafs va ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanishiga to'sqinlik qilolmaydi. Agar insonga olloh tajallisining samarasi sifatida yondashsa, u egallagan ilm er yuzida tinchlik va totuvlikka erishilishiga va hamma odamlarning ezgu orzu-niyatlari ro'yobga chiqishiga xizmat qiladi" [1.].

Akademik erkinlikning ijtimoiy-falsafiy mohiyati, avvalo, erkinlik kategoriyasining mazmuni bilan bevosita bog'liqdir. Erkinlik masalasi falsafadagi eng murakkab muammolardan biridir. Hegel ta'kidlaganidek: "Erkinlik g'oyasi singari ko'p ma'noli, osongina cheksiz tushunmovchiliklarga olib keladigan va shu sababdan ham tushunmovchiliklarni o'ziga singdirib oladigan boshqa biron g'oya haqida komil ishonch bilan gapirish mumkin emas, biron bir g'oya haqida bu qadar yaxshi tushunib etmay gapirish ham kamdan kam uchraydi" [4.291].

Erkinlik tushunchasining falsafiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, psixologik,

axloqiy, estetik, akademik va boshqa aspektlari mavjud. Masalan, umumfalsafiy ma'noda erkinlik kishining tabiat kuchlari, ijtimoiy jarayonlar va o'zi ustidan zaruratni bilishga asoslangan hukmronlik darajasini bildiradi. Shuningdek, falsafada erkinlik insonning ongli faoliyat yuritishi, tanlov qilish qobiliyati va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyati sifatida talqin etiladi. Bu o'rinda bizni akademik erkinlik va uning jamiyat ma'naviy rivojlanishidagi ahamiyati masalasi qiziqtiradi. Shu ma'noda, akademik erkinlik ilmiy subyekt - olim, o'qituvchi va talabaning intellektual erkinligini ifodalaydi.

Mazkur fenomen jamiyatning ma'naviy rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi muhim mezonlardan biridir. Akademik erkinlik mavjud bo'lmagan yoki cheklangan sharoitda ilm-fan instrumental xarakter kasb etib, ijodiy va tanqidiy tafakkur susayadi. Aksincha, akademik erkinlik rivojlangan jamiyatlarda innovatsiyalar, ilmiy yangiliklar va ijtimoiy taraqqiyotning barqaror mexanizmlari shakllanadi.

Abulqalam Ozod sharq va g'arb ta'lim tizimlarining o'ziga xos jihatlari tahlil qilar ekan, ularning farqli va o'xshash jihatlari qayd etadi. "Sharqda ham, G'arbda ham keng tarqalgan ta'lim tizimlarining o'z paradokslari mavjud. Sharqda shaxsiy najot tushunchasiga juda katta e'tibor qaratiladi. Inson o'zini qutqarish uchun ilmga intiladi. Shaxsiy najot muammosini birinchi o'ringa qo'yuvchi Sharq tafakkuri ijtimoiy farovonlik va taraqqiyotga har doim ham etarlicha e'tibor qaratmagan. G'arbda esa aksincha, ijtimoiy taraqqiyot masalalariga ustuvor ahamiyat berilgan. Haqiqatda esa ijtimoiy farovonlikka bunday katta e'tibor qaratilishi ba'zan inson qadr-qimmatini kamsitiladigan totalitar jamiyatlar paydo bo'lishiga olib kelgan. Ilm-fan rivojlanishi tufayli Sharq va G'arb yaqinlashgan bugungi kunda shaxsga, jamiyatga nisbatan g'arazli munosabatga barham berilib, ikkovining ham muhimligi e'tirof etilishi va har ikkalasiga etarlicha e'tibor qaratiladigan ta'lim tizimi yaratilishi kerak.

Shu tariqa ta'limning bugungi kunimizdagi ahamiyati ayon bo'ladi. Tajribaning ko'rsatishicha, ta'lim insonni, u orqali esa jamiyatni o'zgartirishga qodirdir. Kishi shaxsga aylanmagan joyda jamiyat mukammal bo'la olmaydi. Shu bois hozirgi zamonda ta'lim komil insonni tarbiyalashga xizmat qilishi, sharqcha va g'arbcha inson tushunchalari esa bu jarayonga o'z ulushlarini qo'shishlari lozim" [1.].

Spinoza erkinlikni zaruriyat deb hisoblaydi. U inson irodasining mutlaq erkinligi mavjud emasligini, balki hamma narsa qat'iy zaruriyat bilan belgilanishini ta'kidlaydi. "Mening nazarimda erkinlik erkin hal etishda bo'lmay... balki erkin zaruriyatdir" [14. 155] deb yozgan edi. Agar zaruriyat bilib olinsa. U erkinlikka aylanadi. Erkinlik bilingan zaruriyatdir. Kishi tabiatni o'z hatti harakatlari va mayllarini bilib, ular ustidan hukmronlik qila olish qudratiga ega bo'la olsa, erkin bo'la oladi. Erkinlik zaruriyatni rad etmaydi, zaruriyat esa erkinlikni inkor qilmaydi. Mutafakkirning buyuk xizmati ham shuni e'tirof etishidir [12.209]. Spinoza erkinlik jarayonini sof mushohadadan iborat, aql yordamidagina erishiladi, deb tushundi. "Men aqlga amal qiluvchi odamni erkin, deb atayman" [14.156] deydi. Irodani aql bilan birday qilib ko'rsatgan mutafakkir fikricha, o'zini himoya qilishga intilish va o'z foydasini ko'zlash insonning xulq-atvorini harakatga keltiradi. Iroda ham motivlarga bog'liq deb e'tirof etadi, erkinlik zaruriyatni bilishga asoslanuvchi hatti-harakat sifatida yuz berishi mumkin, deb hisoblaydi.

Tadqiqotchi D. Rahimjanova fikricha, kishining erkin axloqiy faoliyati faqat zaruriyatni bilish asosidagina amalga oshadi. Zaruriyat shaxsni jonsiz qo'g'irchoqqa aylantirmaydi - u o'zining sharoitning quli qilish ham yoki o'zini ongli ravishda ularga qarama-qarshi qo'yishi ham mumkin. Zaruriyatni bilgan kishi unga muvofiq faoliyat ko'rsatadi, bu uning erkinligidir. U bilib olingan zaruriyatga bo'ysunmasligi va unga zid bo'lgan hatti-harakat ham qilishi mumkin, bu esa uning o'zboshimchaligidir [12.209].

Demak, erkinlik axloqiy jihatdan insoniy faoliyatning o'ziga xos ko'rinishi - akademik erkinlikda yaqqol namoyon bo'ladi. Universitet va erkinlik g'oyasining "otalari" Immanuel Kant, Vilgelm fon Gumboldt, Karl Yaspers asarlarida bu masala o'ziga xos ravishda tahlil etiladi.

Immanuel Kantning "Fakultetlar nizosi" [8.] asari akademik erkinlikning falsafiy asosi

hisoblanadi. Kant universitetning "quyi" (falsafa) fakulteti davlatdan mustaqil bo'lishi va haqiqatni izlashi kerakligini ta'kidlagan.

Zamonaviy tadqiqot universiteti modelining asoschisi, Vilgelm fon Humboldt esa "ta'lim va tadqiqot birligi" hamda "Lernfreiheit" (o'rganish erkinligi) va "Lehrfreiheit" (o'qitish erkinligi) prinsiplarini [7.] tadqiq etadi.

Karl Yaspers "Universitet g'oyasi" asarida [10.] akademik erkinlikni insonning mavjudlik (ekzistensial) erkinligi bilan bog'laydi.

Zamonaviy g'arb va sharq ta'lim falsafasi namoyondalari xalqaro miqyosda akademik erkinlikni ijtimoiy institut sifatida tahlil qilgan. Amerikalik olim Filip Altbach (Philip G. Altbach) globallashuv davrida akademik erkinlikning transformatsiyasi va tijoratlashuv tahdidlari haqida yozgan eng nufuzli olimlardan biri hisoblanadi [2.].

Universitetning ijtimoiy mas'uliyati va "anglab bo'lmaydigan dunyoda" [3.] akademik erkinlikning yangi mazmunini Ronald Barnett (Ronald Barnett) tadqiq etadi.

Yurgen Xabermas esa universitetni "kommunikativ harakat" maydoni sifatida ko'rib, undagi erkin muloqot demokratik jamiyat asosi ekanini asoslaydi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, akademik erkinlikning falsafiy mohiyati quyidagi asosiy jihatlarida namoyon bo'ladi:

- bilish jarayonida dogmatizm va stereotiplardan holi bo'lish;
- ilmiy haqiqatni izlashda tanqidiy va mantiqiy yondashuv;
- ilmiy mas'uliyat va axloqiy me'yorlarga amal qilish;
- ilmiy faoliyat natijalarining jamiyat manfaatlariga xizmat qilishi.

Shu bilan birga, akademik erkinlik mutlaq hodisa emas, balki u jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tuzilmasi, madaniy qadriyatlari va huquqiy tizimi bilan uzviy bog'liq holda amal qiladi.

Akademik erkinlikning konseptual asoslari bir nechta fundamental g'oyalarga tayangan holda shakllanadi. Birinchidan, bu - ilm-fanning avtonomligi tamoyilidir. Ilmiy faoliyat siyosiy, iqtisodiy yoki mafkuraviy manfaatlardan nisbatan mustaqil bo'lishi zarur. Aynan shu avtonomlik ilmiy izlanishlarning ob'ektivligi va ishonchliligini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, akademik erkinlik shaxs huquqlari va erkinliklarining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Ta'lim va ilm-fan sohasida faoliyat yurituvchi subyektlar o'z fikrlarini erkin bildirish, ilmiy bahs-munozaralarda ishtirok etish va o'z ilmiy qarashlarini himoya qilish huquqiga ega bo'lishi kerak.

Uchinchidan, akademik erkinlik ijtimoiy mas'uliyat bilan chambarchas bog'liqdir. Erkinlik ilmiy subyektga nafaqat huquqlar, balki jamiyat oldidagi mas'uliyatni ham yuklaydi. Ilmiy faoliyatning natijalari insoniyat taraqqiyoti, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy barqarorlikka zid bo'lmasligi lozim.

Konseptual jihatdan akademik erkinlik:

- ta'lim sifati va ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshiradi;
- innovatsion fikrlash va kreativ yondashuvni rag'batlantiradi;
- demokratik qadriyatlar va ochiq jamiyatning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Globalashuv va bilimlar iqtisodiyoti sharoitida akademik erkinlik jamiyatning raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillardan biriga aylanmoqda. Zamonaviy jamiyatda bilim ishlab chiqarish, uni tarqatish va amaliyotga tatbiq etish jarayonlari aynan akademik erkinlik mavjud bo'lgan muhitda samarali kechadi.

Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda akademik erkinlik fenomeni nafaqat ta'lim va ilm-fan sohasiga oid institutsional tamoyil, balki akademik madaniyatning ontologik va aksiologik asosi sifatida talqin etiladi. Xususan,

V.S. Nikol'skiy "akademik erkinlikni ilm-fan, ta'lim va jamiyat o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in sifatida baholab, uni akademik madaniyatning universal kategoriyasi deb ta'riflaydi. Olimning fikricha, akademik erkinlik shaxsni akademik faoliyat subyektini sifatida shakllantiradi va ilmiy haqiqatga intilish jarayonida shaxsiy mas'uliyatni taqozo etadi" [11.]. Shu bois akademik

erkinlik nafaqat huquqiy hodisa, balki ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega bo'lgan murakkab hodisadir.

E.V. Frolova akademik erkinlikni zamonaviy universitetning asosiy qadriyatlari tizimi bilan bog'lab tahlil qiladi. Uning ta'kidlashicha, "akademik erkinlik universitet avtonomiyasi, akademik mas'uliyat va ilmiy halollik bilan birgalikda yagona aksiologik majmua hosil qiladi" [6.]. Olim universitetning jamiyat va davlat bilan o'zaro munosabatlarida aynan akademik erkinlik uning ichki barqarorligini ta'minlovchi muhim omil ekanini ko'rsatadi.

Akademik erkinlikning axloqiy o'lchovi O.V. Savvina tadqiqotlarida chuqur ochib berilgan. "U akademik erkinlikni akademik etika bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida talqin qilib, erkinlik mas'uliyatsiz mavjud bo'la olmasligini asoslaydi. Savvinning fikricha, zamonaviy universitetlarda akademik erkinlikning institutsionallashuvi etik kodekslar, axloqiy komissiyalar va professional me'yorlar orqali amalga oshadi" [13.]. Bu yondashuv akademik erkinlikning normativ-chegaraviy xarakterini ko'rsatadi.

Akademik erkinlik masalasi V.P. Shtokolova tomonidan ham tadqiqot ishlarida yoritilgan. "Olim akademik erkinlikni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasining muhim elementi sifatida baholab, talabalarni ta'lim jarayonining passiv obyektiga emas, balki faol subyektiga sifatida shakllantirishda uning rolini alohida ta'kidlaydi" [15.]. Bu yondashuv akademik erkinlikning antropologik jihatini ochib beradi.

Klassik universitet modeli nuqtai nazaridan M.A. Komarova akademik erkinlikni universitetning tarixiy missiyasi bilan bog'laydi. Unga ko'ra, "akademik erkinlik fundamental ta'lim, ilmiy izlanishlarning mustaqilligi va madaniy merosni uzluksiz uzatish imkonini beruvchi asosiy shartdir" [9.]. Ushbu qarash akademik erkinlikning tarixiy-genetik ildizlarini ochib beradi.

O.V. Shmurygina esa "akademik erkinlikni oliy maktabning jamiyatni qayta ishlab chiqarish jarayonidagi funksiyalari bilan bog'lab tahlil qiladi. Olimning fikricha, akademik erkinlik bilimlar reproduksiyasi, intellektual elita shakllanishi va ijtimoiy innovatsiyalarni ta'minlovchi muhim mexanizm hisoblanadi" [16.]. Bu yondashuv akademik erkinlikning makroiijtimoiy ahamiyatini ko'rsatadi.

Akademik erkinlikning cheklanishi esa ilmiy muhitda konformizm, tashabbussizlik va intellektual tanazzulga olib kelishi mumkin. Shu bois, akademik erkinlikni ta'minlash nafaqat ta'lim muassasalarining ichki masalasi, balki davlat va jamiyat miqyosidagi strategik vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA. Akademik erkinlik tushunchasi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurda murakkab va ko'p qatlamli kategoriya sifatida namoyon bo'lib, u erkinlik, bilish, ijod, mas'uliyat va avtonomiya kabi fundamental falsafiy kategoriyalar bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Akademik erkinlikni faqat huquqiy yoki institutsional doirada talqin qilish uning mohiyatini to'liq ochib bera olmaydi, chunki u, eng avvalo, ilmiy tafakkurning mavjudlik usuli, bilish jarayonining ichki sharti va intellektual faoliyatning ijtimoiy shaklidir. Shu bois akademik erkinlik falsafiy-kategorial tahlil nuqtai nazaridan ijtimoiy ongning rivojlanish darajasini ifodalovchi muhim mezon sifatida qaraladi.

Falsafada erkinlik kategoriyasi insonning ongli tanlov qilish, maqsadli faoliyat yuritish va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyati sifatida talqin etiladi. Akademik erkinlik ana shu umumiy erkinlik kategoriyasining ilm-fan va ta'lim sohasidagi maxsus ko'rinishi bo'lib, ilmiy subyektning - olim, o'qituvchi va tadqiqotchining - ilmiy muammolarni tanlash, ularni talqin qilish va ilmiy xulosalarni e'lon qilishdagi mustaqilligini anglatadi. Shu bilan birga, akademik erkinlik mutlaq erkinlik emas, balki ijtimoiy me'yorlar, ilmiy metodologiya va axloqiy tamoyillar bilan chegaralangan mas'uliyatli erkinlikdir. Aynan shu jihat uni anarxiyadan ajratib turadi va jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Абулқалам Озод. Инсон тушунчаси ва Шарқу Фарбдаги таълим муаммолари [Электрон

- манба]. URL: <https://ziyouz.uz/hikmatlar/nutqlar/abulqalam-ozod-inson-tushunchasi-va-sharqu-garbdagi-talim-muammolari/>
2. Altbach P.G. Academic Freedom: International Realities and Challenges.
  3. Barnett R. The Idea of Higher Education.
  4. Гегель Г. Сочинения. Т. 3. – М.: Мысль, 1966.
  5. Имом Зарнужий. Илм олиш сирлари. – Тошкент: Munir, 2022. – Б. 33.
  6. Фролова Е.В. Академические ценности современного университета: социально-философский анализ: автореф. дис. ... канд. филос. наук. – М., 2006.
  7. Humboldt W. von. On the Internal and External Organization of the Higher Scientific Institutions in Berlin.
  8. Кант И. Спор факультетов / пер. с нем. Ц.Г. Арзаканяна, И.Д. Копцева, М.И. Левиной; отв. ред. Л.А. Калининков. – Калининград: Изд-во КГУ, 2002. – 286 с.
  9. Комарова О.И. Упрочение модели классического университета: социально-философский анализ: автореф. дис. ... канд. филос. наук. – М., 2005.
  10. Jaspers K. The Idea of the University.
  11. Николский В.С. Философские основания академической свободы: автореф. дис. ... д-ра филос. наук. – М., 2011.
  12. Рахимджанова Д.С. Неоплатонизмда эркинлик ҳақидаги таълимотнинг ҳозирги замондаги аҳамияти // Шарқ алломалари ёзма меросининг илмий, фалсафий, маънавий тафаккурдаги ўрни: илмий мақолалар тўплами. – Тошкент: ТДШУ, 2020. – 440 б.
  13. Саввина О.В. Академическая этика: общие принципы и прикладные аспекты: автореф. дис. ... канд. филос. наук. – М., 2011.
  14. Спиноза Б. Избранные произведения: в 2 т. – М.: Мысль, 1957.
  15. Штоколова В.П. Академические свободы студентов в системе профессиональной подготовки: автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Майкоп, 2005.
  16. Шмурыгина О.В. Высшая школа в процессах общественного воспроизводства: автореф. дис. ... канд. филос. наук. – Екатеринбург, 2013.